

## **EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRLIGINING MAQSADLI INDIKATORLAR KO'RSATKICHINING 2024 YIL IJROSI BO'YICHA BAHOLASH XULOSASI**

2024-yilda belgilangan maqsadli indikatorlar ko'rsatkichlarni bajarilishi taqdim qilingan hisobotlarga asosan tahlil qilinganda quyidagilar ma'lum bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi (*keyingi o'rinlarda – Vazirlik deb yuritiladi*) bo'yicha 2024-yil uchun strategik maqsad:

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash hamda hayvonot va o'simlik dunyosidan, muhofaza etiladigan tabiiy hududlardan oqilona foydalanish orqali O'zbekiston Respublikasi ekologiya tizimini yaxshilash.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda PQ-422-son qarori 7-ilovasi bilan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi uchun 2024 yilda budget mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq maqsadli indikatorlari tasdiqlangan.

2024-yilda rivojlantirish dasturlariga **528,9 mlrd so'm** mablag' rejalashtirilgan.

Tasdiqlangan reja "2024 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi Qonunchilik palatasi tomonidan 2024-yil 3-dekabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2024-yil 18-dekabrda ma'qullangan O'zbekiston Respublikasining Qonuniga asosan **528,9 mlrd so'mdan 478,9 mlrd so'mga** kamaytirilgan. Jumladan;

1. Hayvonot va o'simlik dunyosi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, chiqindilarni utilizatsiya qilish joylarining davlat kadastrlarini yuritish uchun xarajatlar dasturi (*VM-914-son, 07.11.2018 y.*) – **7,5 mlrd so'm**.

*Dastur maqsadi: Hayvonot va o'simlik dunyosi ob'ektlari muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, chiqindilarni ko'mish joylarini davlat kadastr bilan qamrab olish.*

Vazirlik tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlarga ko'ra, bu yo'nalish bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshirilgan. Jumladan,

- O'simlik dunyosi ob'ektlarini xatlovdan o'tkazish yo'nalishida O'zbekiston Respublika Fanlar akademiyasi Botanika instituti bilan 29.02.2024 yilda tuzilgan 2/2024-sonli shartnomaga (*1,471 mlrd so'mlik*) asosan **1,408 mlrd so'mlik**;

- Hayvonot dunyosi ob'ektlarini xatlovdan o'tkazish yo'nalishida O'zbekiston Respublika Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti bilan 09.04.2024 yilda tuzilgan 04/2024- va 05/2024-sonli shartnomalarga (*1,363 mlrd so'mlik*) asosan **1,132 mlrd so'mlik**;

- Hayvonot dunyosi ob'ektlarini xatlovdan o'tkazish yo'nalishida Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar departamenti DM bilan 09.04.2024 yilda tuzilgan 9-sonli shartnomaga (1,018 mlrd so'mlik) asosan 0,560 mlrd so'mlik;

- Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastrining suvni muhofaza qilish zonalarini belgilash yo'nalishida "O'zdaverloyiha" davlat ilmiy-loyihalash instituti bilan 06.05.2024 yilda tuzilgan 2024-9X-sonli va 22.08.2024 yildagi "qo'shimcha kelishuv-1" ga asosan (3,299 mlrd so'mlik) shartnomaga asosan **3,299 mlrd so'mlik** ishlar bajarilgan.

Natijada mazkur yo'nalishda yil yakuniga 6,4 mlrd so'm sarflangan bo'lib, bu ko'rsatkich **1,1 mlrd so'mga** kam yoki **85,3 foizga** bajarilgan.

Yakuniy natija ko'rsatkichi:

- Xatlov qilinadigan davlat kadastrlari ob'ektlari sonining o'zgarishi – **45 foiz**.

Hisobotda mazkur maqsadli indikatorning yakuniy natija ko'rsatkichi **45 foiz** ko'rsatilgan.

Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi:

- O'simlik dunyosi ob'ektlarini xatlovdan o'tkazish – 65 tur.

O'zbekiston Respublika Fanlar akademiyasi Botanika instituti bilan 29.02.2024 yilda tuzilgan 2/2024-sonli shartnomaga asosan bajarilgan ishlar dalolatnomasi va hisobotida Andijon (18 tur), Namangan (25 tur) va Farg'ona viloyatlarida (22 tur) jami 65 turdagi tabiiy holda tarqalgan o'simliklarning tabiiy resurslari xatlovdan o'tkazilib baholangan.

- Hayvonot dunyosi ob'ektlarini xatlovdan o'tkazish – 83 tur.

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar departamenti" davlat muassasasi tomonidan o'tkazilgan o'rganishlar yakuni bo'yicha hisobotlarda bevosita natija ko'rsatkichi 83 turda bajarilgan.

- Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastrining suvni muhofaza qilish zonalarini belgilash – 13 dona.

"O'zdaverloyiha" davlat ilmiy-loyihalash instituti tomonidan 14 ta suvni muhofaza qilish zonalarini belgilash loyihalari ishlab chiqilgan, mazkur ko'rsatkich rejaga nisbatan 1 donaga ko'p, yoki **107,7 foizga** bajarilgan.

2. Cho'l, tog'li va tog'oldi hududlarida cho'llanish va qum ko'chishi, suv va tuproq eroziyasining oldini olish hamda ekologik muhitni yaxshilash maqsadida himoya o'rmonlarini (ihota) barpo etish uchun xarajatlar – **40 mlrd so'm**.

*Dastur maqsadi: Cho'l, tog' va tog'oldi hududlarida cho'llanish va qum ko'chishi, suv va tuproq eroziyasining oldini olish hamda ekologik muhitni yaxshilash maqsadida himoya o'rmonzorlari (ihota) barpo etish.*

Maqsadli indikator ko'rsatkichini amalga oshirish uchun davlat budjetidan 40 mlrd so'm ajratilishi rejalashtirilgan. Hisobot bo'yicha vazirlik huzuridagi O'rmon xo'jaligi agentligi tomonidan **35,5 mlrd so'm** sarflangan

bo'lib, bu ko'rsatkich **4,5 mlrd so'mga** kam yoki **88,8 foizga** bajarilganligi ko'rsatilgan.

Jumladan, O'rmon xo'jaligi agentligi tomonidan o'rmon fondi yer maydonlarida 3 337,2 gektar maydonda himoya o'rmonzorlari barpo etish uchun **23 ta** pudratchilar bilan **36,2 mlrd so'mlik** shartnomalar imzolangan.

Agentlik tomonidan pudratchilarga **35,0 mlrd so'mlik** bajarilgan ishlar dalolatnomalarga asosan **33,3 mlrd so'm** va bo'nak tariqasida **114,4 mln so'm** jami **33,4 mlrd so'm** mablag'lar o'tkazib berilgan.

2024-yil yakuniga 3 ta pudrat shartnomasi bo'yicha **381,2 mln so'mlik** (1 450 gektar) ishlar bajarilmagan.

Bajarilmagan pudrat shartnomalari bo'yicha to'lab berilgan bo'nak mablag'laridan 1 ta pudratchidan 37,4 mln so'm yil yakunidan so'ng qaytarilgan.

Bundan tashqari, loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqishga 1,9 mlrd so'm, hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish ishlariga 44,4 mln so'm hamda avvalgi yillarda barpo etilgan o'rmonzorlar uchun 5 %lik kafolat summasini to'lab berishga 203,4 mln so'm mablag'lar yo'naltirilgan.

Natijada yil yakuniga bu yo'nalishda amalda 35,4 mlrd so'm sarflangan bo'lib, bu ko'rsatkich **4,6 mlrd so'mga** kam yoki **88,5 foizga** bajarilgan. (Dastlabki hisobotlar noto'g'ri tuzilgan)

Yakuniy natija ko'rsatkichi:

Himoya o'rmonzorlari yaratish – 1 500 gektar.

20 ta pudrat shartnomalari bo'yicha barpo qilingan himoya o'rmonzorlari maqsadli indikator yakuniy ko'rsatkichi 1 887,2 gektarga, ya'ni rejaga nisbatan 387,2 gektarga ko'p yoki **125,8 foizga** bajarilgan.

Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi:

O'rmon xo'jaliklarida himoya o'rmonzorlari uchun ko'chat yetishtirish – 33 000 ming dona.

O'rmon xo'jaligi agentligi tomonidan taqdim qilingan hisobotlarga ko'ra, agentlik tizimidagi o'rmon xo'jaliklari tomonidan 34 600 dona tut ko'chatlari yetishtirilgan, bevosita natija ko'rsatkichi rejaga nisbatan 1 600 donaga ko'p yoki 104,9 foizga bajarilgan.

3. "Yashil makon" umummilliy loyihasi dasturi (PF-81-son, 31.05.2023 y.) – 100,0 mlrd so'm.

*Dastur maqsadi: Yashil hududlarni rivojlantirish, ko'klamzorlashtirish va ko'chat ekish ishlarini tizimli tashkil etish.*

Maqsadli indikator ko'rsatkichini 2024 yilda amalga oshirish uchun davlat budjetidan **100 mlrd so'm** mablag' rejalashtirilgan.

Mazkur mablag'larning 52 mlrd so'mi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 23.11.2023 yildagi PF-199 sonli Farmoniga asosan jamoatchilik

fikri asosida ishlab chiqiladigan “Menim bog‘im” loyihalarini moliyalashtirish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga yo‘naltirilgan. *(Iqtisodiyot va moliya vazirligining 15.05.2024 yildagi 03/35-7-10262-son xati)*

Shunga ko‘ra, vazirlik tomonidan maqsadli indikator ko‘rsatkichining hisoboti **48 mlrd so‘m** mablag‘lar doirasida shakllantirilgan.

Hisobotda mazkur indikator bo‘yicha **43,8 mlrd so‘m** sarflangan bo‘lib, rejaga nisbatan **4,2 mlrd so‘m**ga kam yoki **91,25 foiz**ga bajarilgan. Jumladan,

1. O‘rmon xo‘jaligi agentligi tomonidan 130 ta tuman va shaharlarda 336,3 gektar maydonda "Yashil bog‘lar" barpo etish uchun “Yashil hudud” DUK lar bilan jami 130 ta 14,8 mlrd so‘mlik pudrat shartnomalari imzolangan.

Agentlik tomonidan 2024 yil davomida bajarilgan ishlar dalolatnomalarga asosan 11,37 mlrd so‘m va bo‘nak tariqasida 608,7 mln so‘m jami 11,98 mlrd so‘m mablag‘lar o‘tkazib berilgan.

2024 yil yakuniga, 25 ta pudrat shartnomalariga *(2 028,9 mln so‘mlik 52,3 gektar uchun)* hisobidan to‘langan 608,7 mln so‘mlik bo‘nak mablag‘lari hisobidan ishlar bajarilmagan bo‘lsa, 1 ta shartnoma bo‘yicha 1,2 mln so‘mga ko‘p to‘langan.

Bajarilmagan 5 ta pudrat shartnomalari bo‘yicha to‘langan 81,3 mln so‘m hamda bajarilganiga nisbatan ko‘p to‘langan 1,2 mln so‘m mablag‘lar agentlik hisob raqamiga qaytarilgan.

Bundan tashqari, loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqishga 0,84 mlrd so‘m, hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazish ishlariga 18,1 mln so‘m hamda 2023 yilda barpo etilgan “Yashil bog‘lar” bo‘yicha 5 %lik kafolat summasini to‘lab berishga 999,8 mln so‘m mablag‘lar yo‘naltirilgan.

Bu yo‘nalishda amalda **13,2 mlrd so‘m** sarflangan.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.09.2023 yildagi 604-F/9-sonli Farmoyishiga muvofiq O‘rmon xo‘jaligi agentligi tomonidan Toshkent-Samarqand temir yo‘li atrofidagi 16 ta hududda 160,5 gektar maydonni ko‘kalamzorlashtirish ishlari uchun o‘rmon xo‘jaliklari bilan jami 16 ta 13,02 mlrd so‘mlik shartnomalar imzolangan.

Agentlik tomonidan 2024 yil davomida bajarilgan ishlar dalolatnomalariga asosan 12,74 mlrd so‘m mablag‘lar o‘tkazib berilgan.

Bundan tashqari, loyiha smeta hujjatlarini ishlab chiqishga 0,705 mlrd so‘m va hujjatlarni ekspertizadan o‘tkazish ishlariga 10,9 mln so‘m mablag‘lar yo‘naltirilgan.

Bu yo‘nalishda jami 13,5 mlrd so‘m sarflangan.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.01.2024 yildagi 30-F/6-sonli (XDFU) Farmoyishiga asosan mazkur yo‘nalishga ajratilgan mablag‘lar hisobidan 15 mlrd so‘m “yashil qoplamalar” barpo etish uchun “Orol

Agro” MChJ huzuridagi Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish maxsus hisobvarag‘iga o‘tkazib berilgan.

4. O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 10.12.2024 yildagi 22/1-1247-sonli rozilik xati bilan 1,5 mlrd so‘m mablag‘lar Samarqand viloyati Samarqand tumani “Yangijoy” mahallasida “COP-14” nomi bilan tashkil etilayotgan bog‘ uchun o‘tkazib berilgan.

Natijada yil yakuniga bu yo‘nalishda jami 43,2 mlrd so‘m sarflangan bo‘lib, ko‘rsatkich 4,8 mlrd so‘mga kam yoki 90,0 foizga bajarilgan. *(Dastlabki hisobotlar noto‘g‘ri tuzilgan)*

Bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) natija ko‘rsatkichi:

– Barpo etiladigan «Yashil bog‘lar» maydoni– 347 gektar.

Vazirlik tomonidan tuzilgan hisobotda mazkur maqsadli indikator yakuniy ko‘rsatkichi 445 gektar, ya‘ni rejaga nisbatan 98 gektarga ko‘p yoki 128,2 foizga bajarilganligi ko‘rsatilgan.

Biroq, 105 ta shartnomalar bo‘yicha 282,5 gektarda "Yashil bog‘lar" hamda 16 ta shartnomalar bo‘yicha 160,5 gektar maydonda “Temir yo‘li atrofi ko‘kalamzorlashtirilgan yoki amalda 443 gektar maydonda tashkil qilingan.

Natija ko‘rsatkichi haqiqatda rejaga nisbatan 96 gektarga ko‘p yoki 127,7 foizga bajarilgan. *(Dastlabki hisobotlar noto‘g‘ri tuzilgan)*

4. Investorlar tomonidan yangi dor yo‘llarini qurish va jihozlash uchun yo‘naltirilgan mablag‘larning bir qismini qoplab berish uchun xarajatlar – **20,0 mlrd so‘m**.

*Dastur maqsadi: Dor yo‘llari quriladigan hududga xorijiy va mahalliy turistlarni jalb etish hamda hudud infratuzilmasini rivojlantirish.*

Maqsadli indikator ko‘rsatkichini 2024 yilda amalga oshirish uchun davlat budjetidan 20 mlrd so‘m mablag‘lar rejalashtirilgan.

Hisobotda mazkur indikator bo‘yicha 10,0 mlrd so‘m sarflangan bo‘lib, rejaga nisbatan **10,0 mlrd so‘mga** kam yoki reja **50,0 foizga** bajarilgan.

Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 1 avgustdagi 475-sonli qaroriga asosan vazirlik huzuridagi Turizm qo‘mitasi tomonidan Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani G‘azalkent MFY, Amirsoy ko‘chasi 56-uyda joylashgan “Amirsoy” MChJ qo‘shma korxonasi (305152772) jami uzunligi 5 960,68 metrdan iborat qurilgan 3 ta dor yo‘li uchun 10 mlrd so‘m subsidiya mablag‘lari to‘lab berilgan.

Natijada yil yakuniga bu yo‘nalishda 10,0 mlrd so‘m sarflangan, bu ko‘rsatkich 10,0 mlrd so‘mga kam yoki 50,0 foizga bajarilgan.

Yakuniy natija ko‘rsatkichi:

– Dor yo‘llari quriladigan hududga tashrif buyuruvchi xorijiy va ichki turistlar soni – 800 ming nafar.

Vazirlikka taqdim qilingan hisobotlarda maqsadli indikatorning yakuniy natija ko'rsatkichi 840 ming nafar, ya'ni rejaga nisbatan 40 ming nafarga ko'p yoki 105 foizga bajarilgan.

Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi:

– Dor yo'llari soni – 5 dona.

Mazkur yo'nalishda natija ko'rsatkichi 3 ta dor yo'lini tashkil qilib, rejaga nisbatan 2 donaga kam yoki 60 foizga bajarilgan.

– Dor yo'llari uzunligi– 11,4 km.

“Amirsoy” MChJ qo'shma korxonasi tomonidan 5 960,68 metr dor yo'li tashkil qilingan bo'lib, ya'ni rejaga nisbatan 5,4 kmga kam yoki **52,3 foizga** bajarilgan. (*Dastlabki hisobotlar noto'g'ri tuzilgan*)

5. Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish va aholi punktlarida tozalikni ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar (*PQ-349-son, 11.08.2022 y.*)– **174,4 mlrd so'm.**

*Dastur maqsadi: Chiqindilar bilan ishlash sohasida atrof-muhitga yetkaziladigan salbiy ta'sirlarni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.*

Maqsadli indikator ko'rsatkichini 2024 yilda amalga oshirish uchun davlat budjetidan 174,4 mlrd so'm mablag'lar rejalashtirilgan.

Vazirlik hisobotida mazkur indikator bo'yicha **174,4 mlrd so'm** sarflangan bo'lib, reja ko'rsatkichi **100,0 foizga** bajarilgan qilib keltirilgan.

Chiqindilarni boshqarish tizimini muvofiqlashtirish va aylanma (sirkulyar) iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha Respublika komissiyasining 01.04.2024 yildagi 20-son majlis bayoni bilan “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.01.2024 yildagi PF-5-son Farmoni bilan tasdiqlangan Manzilli dasturga o'zgartirish kiritish to'g'risida”gi qarori qabul qilingan. (*Keyingi o'rinlarda – Komissiya bayoni deb yuritiladi*)

Shunga ko'ra, Davlat budjetidan ajratilgan 174,4 mlrd so'm mablag'lar vazirlik huzuridagi muassasalar tomonidan quyidagicha sarflangan.

1. “Chiqindi poligonlarini boshqarish direksiyasi” davlat muassasasiga mazkur yo'nalish uchun ajratilgan 115,2 mlrd so'm mablag'lar hisobidan quyidagi xarajatlar amalga oshirilgan:

– poligonlarda foydalanish uchun 2 ta shartnomalarga asosan 78 ta (*15 ta buldozer, 16 ta frontal pogruzchik, 47 ta avtosamosval*) maxsus texnika sotib olishga 100,3 mlrd so'm;

– 1 ta shartnomaga asosan 37 ta avtotarozi xarid qilish va o'rnatishga 10,98 mlrd so'm;

– 1 ta shartnomaga asosan 37 ta kuzatuv kameralar xarid qilish va o'rnatishga 2,3 mlrd so'm;

– sotib olingan maxsus texnikalarni davlat ro'yxati va texnik ko'riklardan o'tkazish uchun 218,5 mln so'm.

Yuqoridagi tadbirlar uchun jami 113,7 mlrd so'm sarflangan.

2. Vazirlik huzuridagi "Binolardan foydalanish va qurilish-ta'mirlash ishlari direksiyasi" Davlat muassasasiga chiqindi poligonlari infratuzilmasini yaxshilash, poligonlarni rekultivatsiya qilish hamda zamonaviy qayta yuklash stansiyalarini barpo etish ishlariga **59,1 mlrd so'm** mablag'lar ajratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.12.2024 yildagi 822-F-sonli (XDFU) Farmoyishiga asosan qurilish ishlari doirasida loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, muayyan loyihalarda xarajatlarni maqbullashtirish hisobidan iqtisod qilingan 4,3 mlrd so'm hamda dastur doirasida o'zlashtirilmagan 36,1 mlrd so'm jami 40,5 mlrd so'm mablag'lar qayta taqsimlab berilgan.

Muassasa tomonidan 2024 yilda mablag'lar quyidagi tartibda sarflangan.

Dastlabki (*Komissiya bayonidagi*) rejadagi yo'nalishlarga:

- Toshkent viloyati Ohangaron tumanida zamonaviy talablar asosida namunaviy poligonning loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish uchun ajratilgan 3,5 mlrd so'mdan hisobidan – 2,5 mlrd so'm;

- Qattiq maishiy chiqindi poligonini rekultivatsiya qilish va tuproq bilan yopish (*27 ta ob'ekt*) uchun ajratilgan 11,2 mlrd so'm hisobidan – 8,3 mlrd so'm;

- Infratuzilma ob'ektlarini barpo etish (*6 ta ob'ekt*) uchun ajratilgan 7,7 mlrd so'm hisobidan – 6,2 mlrd so'm;

- Qattiq maishiy chiqindilarni qayta yuklash stansiyasini tashkil etish (*8 ta ob'ekt*) uchun ajratilgan 36,8 mlrd so'm hisobidan 664,2 mln so'm;

Farmoyishga asosan qayta taqsimlangan yo'nalishlarga

- O'rmon xo'jaligi agentligining 13 ta sug'orish qudug'iga yetmagan qismiga – 1,08 mlrd so'm;

- Jizzax shahri Hamid Olimjon bog'i hududida joylashgan sobiq "Vatan" kinoteatri binosida zamonaviy talablarga mos keladigan Ekologiya va tabiat muzeyini qurishga (1-bosqich) – 738,9 mln so'm;

- Toshkent shahri, Yunusobod tumanidagi sobiq Toshkent turizm va servis kolleji hududida "Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti" (Green University) va "Sinszyan ekologiya va geografiya instituti" bilan birgalikda zamonaviy ilmiy tadqiqot laboratoriya va o'quv korpusi tashkil etishga – 29,1 mlrd so'm;

- Toshkent viloyati Chirchiq shahri "Ma'rifat" MFY hududida Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tajriba stansiyasini qurishga – 233 mln so'm;

- Jizzax shahri Hamid Olimjon bog'i hududida joylashgan sobiq "Vatan" kinoteatri binosida zamonaviy talablarga mos keladigan Tabiat va san'at

muloqot markazini rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash bo'yicha 2-bosqich ishlari va Cherkov binosida "Ekologiya va tabiat" muzeyini tom qismini kapital ta'mirlash va eshik va romlarini almashtirish uchun – 9,1 mlrd so'm;

- 2025 yil ob'ektlarining loyiha ishlari xarajatlari – 213,2 mln so'm.

Yuqoridagi tadbirlar uchun jami 58,2 mlrd so'm sarflangan.

Natijada yil yakuniga bu yo'nalishlar bo'yicha jami **171,9 mlrd so'm** sarflangan bo'lib, bu ko'rsatkich rejaga nisbatan **2,45 mlrd so'mga** kam yoki **98,6 foizga** bajarilgan. *(Dastlabki hisobotlar noto'g'ri tuzilgan)*

Yakuniy natija ko'rsatkichi:

- Chiqindilarni qayta ishlash darajasi – 30,0 foiz.

Vazirlik tomonidan qayta taqdim qilingan hisobotda maqsadli indikatorning yakuniy natija ko'rsatkichi 4 foizga, ya'ni 26 foizga kam, yoki reja ko'rsatkich 13,3 foizga bajarilgan. *(Dastlabki hisobotlar noto'g'ri tuzilgan)*

Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi:

- Rekultivatsiya qilinib, tuproq bilan yopiladigan poligonlar soni – 27 dona.

Komissiya bayoniga asosan ob'ekt soni 27 tani tashkil qilgan. Mazkur maqsadli indikatorning bevosita natija ko'rsatkichi 27 dona, ya'ni 100,0 foizga bajarilgan. *(Dastlabki hisobotlar noto'g'ri tuzilgan)*

- Rekultivatsiya qilinadigan va infratuzilma ob'ektlari barpo etiladigan, foydalanilishi davom ettiriladigan poligonlar soni – 6 dona.

Komissiya bayoniga asosan ob'ekt soni 6 donani tashkil qilgan. Mazkur maqsadli indikatorning bevosita natija ko'rsatkichi 6 dona, ya'ni 100 foizga bajarilgan. *(Dastlabki hisobotlar noto'g'ri tuzilgan)*

- Zamonaviy talablar asosida namunaviy poligon tashkil etish – 1 dona.

Komissiya bayoniga asosan 1 dona poligon tashkil qilish o'rniga – 1 dona ob'ektning "loyihasini ishlab chiqish"ga o'zgartirilgan. Mazkur maqsadli indikatorning bevosita natija ko'rsatkichi 1 dona, ya'ni 100,0 foizga bajarilgan.

Qattiq maishiy chiqindilarni qayta yuklash stansiyalarini tashkil etish – 8 dona.

Komissiya bayoniga asosan mazkur maqsadli indikatorning bevosita natija ko'rsatkichi 8 donaga o'zgartirilgan, amalda tashkil etilmagan. Reja ko'rsatkich bajarilmagan. *(Dastlabki hisobotlar noto'g'ri tuzilgan)*

*Ma'lumot uchun, Ajratilgan mablag'lar o'zlashtirilmaganligi sababli Vazirlar Mahkamasining 18.12.2024 yildagi 822-F-soni (XDFU) farmoyishi bilan boshqa tadbirga yo'naltirilgan.*

6. Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga transfertlar (PQ-238-son, 27.07.2023 y.)– **187 mlrd so'm**.



*Dastur maqsadi: Respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 2026 yilga qadar 9 mln nafarga yetkazish.*

Maqsadli indikator ko'rsatkichini 2024 yilda amalga oshirish uchun davlat budjetidan Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga (*Keyingi o'rinlarda – Jamg'arma deb yuritiladi*) 187 mlrd so'm transfert ajratilishi rejalashtirilgan.

Aniqlangan reja "2024 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi Qonunchilik palatasi tomonidan 2024 yil 3 dekabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2024 yil 18 dekabrda ma'qullangan O'zbekiston Respublikasining Qonuniga asosan 187,0 mlrd so'mdan 137,0 mlrd so'm etib kamaytirilgan.

Vazirlik hisoboti bo'yicha, Davlat budjetidan ajratilgan 137,0 mlrd so'm mablag'lardan Jamg'armaga o'tkazilgan 107 mlrd so'mi (*transfert*) to'liqligicha sarflanganligi va bo' ko'rsatkich 30,0 mlrd so'mga kam yoki 78,1 foizga bajarilgan etib ko'rsatilgan.

Mazkur yo'nalishda Davlat budjetidan ajratilishi rejalashtirilgan 137,0 mlrd so'm (*transfert*) mablag'larni vazirlik huzuridagi Turizm qo'mitasi (*keyingi o'rinlarda – Qo'mita deb yuritiladi*) tomonidan haqiqatda quyidagicha sarflangan:

- Xorijiy turizm bozorlarida mamlakat turizm salohiyatini targ'ib qilish uchun ajratilgan 50 mlrd so'm mablag'lar Jamg'armaga o'tkazib berilgan. O'z navbatida mazkur mablag'lar 2024 yil davomida Qo'mitaning tegishli buyruqlari asosida to'liqligicha Qo'mita huzuridagi "Milliy PR-markazi" DUK ga orqali turizm salohiyatini targ'ib qilish xarajatlariga;

- Investorlarning yangi mehmonxonani qurish va jihozlash uchun ketgan xarajatlarining bir qismini va franshiza xarajatlarini qoplab berish uchun ajratilgan 70,0 mlrd so'm mablag'larning 47,0 mlrd so'mi Jamg'armaga o'tkazib berilgan.

Jamg'armaga kelib tushgan 47,0 mlrd so'm mablag'lardan 3,922 mlrd so'mi 3 ta investorlar tomonidan qurilgan mehmonxona xarajatlarini bir qismini qoplash berish uchun subsidiya tariqasida ajratib berilgan. Yil yakuniga sarflanmagan 43,077 mlrd so'm mablag'lar Jamg'armada qoldiqda qolgan. (*Jadval ilova qilinadi*);

- Turoperatorlar tomonidan turistik oqim past bo'lgan xorijiy mamlakatlardan O'zbekiston Respublikasiga olib kelingan har bir turist uchun rag'batlantiruvchi subsidiyalar uchun rejalashtirilgan 3,0 mlrd so'm amalda sarflanmagan;

- Turoperatorlar va aviatashuvchilarning xorijiy mamlakatlardan Samarqand, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlariga amalga oshirilgan charter aviaqatnovlari bo'yicha har bir xorijiy turist uchun subsidiyalar uchun rejalashtirilgan 4,0 mlrd so'm amalda sarflanmagan;

- Xalqaro turizm akademiyasi Samarqand kampusi qurilishi uchun sarflangan mablag'larni qoplab berish uchun 10 mlrd so'm mablag'lar to'liqligicha Jamg'arma o'tkazib berilgan.

Natijada yil yakuniga mazkur maqsadli indikator ko'rsatkichini amalga oshirish uchun Davlat budjetidan ajratilishi rejalashtirilgan **137,0 mlrd so'mning 107,0 mlrd so'mi** Jamg'armaga (*transfert*) o'tkazilgan.

Jamg'armaga o'tkazilgan (*transfert*) 107,0 mlrd so'm reja ko'rsatkichiga (*137,0 mlrd so'm*) nisbatan **30,0 mlrd so'mga** kam yoki **78,1 foizga** bajarilgan.

Jamg'armaga o'tkazilgan 107,0 mlrd so'm mablag'larning 63,9 mlrd so'mi sarflangan bo'lib, yil yakuniga sarflanmagan 43,1 mlrd so'm mablag'lar Jamg'armada qoldiqda qolgan.

Yakuniy natija ko'rsatkichi:

- Turizm xizmatlari eksporti miqdori - 2 500 mln AQSh dollari.

Qo'mita tomonidan taqdim qilingan statistik hisobotlarda yakuniy natija ko'rsatkichi 3 519 mln AQSh dollari, ya'ni aniqlangan rejaga nisbatan 1 019 mln AQSh dollariga ko'p yoki 140,8 foizga bajarilgan.

- Mamlakat aholisi soniga nisbatan mahalliy sayyohlar tashrifi ulushi - 57,5 foiz.

Hisobotlarda maqsadli indikatorning yakuniy natija ko'rsatkichi 61,4 foizga, ya'ni aniqlangan rejaga nisbatan 3,9 foizga ko'p yoki 106,8 foizga bajarilgan.

Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi:

- Xorijiy turistlar soni - 10,5 mln nafar.

Qo'mita tomonidan taqdim qilingan statistik hisobotlarda yakuniy natija ko'rsatkichi 10,3 mln nafarga, ya'ni aniqlangan rejaga nisbatan 0,22 mln nafarga kam yoki 97,9 foizga bajarilgan. (*Dastlabki hisobotlar noto'g'ri tuzilgan*)

- Mahalliy turistlar soni - 21 mln nafar.

Hisobotda mazkur maqsadli indikatorning bevosita natija ko'rsatkichi 22,7 mln nafarga, ya'ni aniqlangan rejaga nisbatan 1,7 mln nafarga ko'p yoki 108,1 foizga bajarilgan.

- Ziyorat turizmi bo'yicha keladigan turistlar soni - 1,6 mln nafar.

Hisobotlarda maqsadli indikatorning bevosita natija ko'rsatkichi 1,6 mln nafarga, ya'ni aniqlangan reja 100 foizga bajarilgan.

**Ichki audit bo'limi**  
**boshlig'i**

**B. Ziyaev**